

## TASHQI TAHDIDLARGA QARSHI KURASHDA TA'LIM-TARBIYANING O'RNI

*Madjitova Kamola Azlar qizi*

*Chirchiq shahar kasb-hunar mакtabida*

*xorijiy tili (ingliz tili) o'qituvchisi*

**Annatotsiya:** Ushbu maqolada yoshlarni yod g'oyalar ta'siriga tushib qolishni oldini olish globallashuv jarayonlarining milliy ma'naviyatga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri, "ommaviy madaniyat" xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarni yo'qolish, Vatanni sevish va ma'suliyatni his etish ruhida tarbiyalash, shu bilan birga andisha, g'urur, or-nomus, ulug'larga hurmat, murosachilik prinsipiga asoslangan "sharqona demokratiya" tushunchasi nima ekanligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'z:** Globallashuv, tahdid, milliy qadryat, ommaviy madaniyat, mafkuraviy xurujlar.

**Аннотация:** в этой статье не допустить попадания молодежи под влияние йодных идей негативное влияние процессов глобализации на национальную духовность, опасность "массовой культуры" и воспитание в духе зарождающихся патриотических настроений, утраты нравственности, ценностей, любви к родине и чувства ответственности, в то же время воспитание в духе андиша, гордости, чести, уважения к великим, в котором говорится о том, что такое понятие "Восточная демократия", основанное на принципе компромисса.

**Ключевое слово:** глобализация, угроза, национальная ценность, популярная культура, идеологические атаки

XXI asr barchamizga ma'lumki texnika asri deb tan olmoqda. Dunyoda globallashuv jarayoni to'xtovsiz davom etayotgan bugungi kunimizda shubhasiz, inson ongini egallash uchun kurash tobora zo'rayib bormoqda. Zamonaviy tehnologiyalar vositasida yoshlarning har bir harakatini kuzatish bilan cheklanmasdan, hatto uning o'y-hayollari, tuyg'ulari va qiziqishlarini egallab olmoqda. Buning natijasida yoshlarmiz o'zлari bilmagan xolda ijtimoiy tarmoqlar orqali taqilangan saytlarga kirib inson uchun xavfli bo'lgan turli xil noan'anaviy tahdidlarga ergashib qolmoqdalar. Bularning eng xavfilari insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali

millatlarning qadriyatlari va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan odob-axloq, oila va jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahdidlar yuzaga keladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarixdan ma'lumki xattoki jangda xam biror davlatni zabit qilmoqchi yoki bosib olmoqchi bo'lsang eng osoni shu davlatni milliy madaniyati va ma'naviyatini yo'q qil degan g'oya ilgari surilgan.

Tahdid so'zi "xavf-xatar, xuruj va buzish" ma'nolarini anglatadi. SHu ma'noda ma'naviy tahdidlar shaxsni aqliy va axloqiy jihatdan buzishga qaratilgan maqsadli xurujlar deyish mumkin.

#### **Ma'naviy tahdidlardan maqsad:**

- shaxsning ma'naviy-axloqiy olamini buzish;
- o'z vatani va jamiyatiga nisbatan yovuzlik fikrini uyg'otish;
- milliy axloqiy qadriyatlarni aynitish;
- o'zgalar jamiyatini ideal deb bilish ko'nikmasini hosil qilish;
- zararli odatlarga xuruj qo'yishdir.

Aniqlanishicha ma'naviy tahdidlarning barcha turi nosog'lom turmush tarzi bilan bog'liqligiga va u mafkuraviy nuqtai nazardan eng xavfli omil ekanligi ma'lum.

Ma'naviy tahdidlarning negizini shaxs tarbiyasini izdan chiqarishga qaratilgan g'oyani tashkil etadi.

Tadqiqotlar natijasida, bugungi kunda ma'naviy tahdidlar quyidagicha illatlarni targ'ib qilayotgani namoyon bo'lmoqda: xudbinlik, nopolik, nafs balosi, hayu-havasga berilish, engil-elpi umr kechirishga da'vat, giyohvandlik, diniy niqob, tajovuzkorlik, molu-dunyoga rujo' qo'yish, axloqiy buzuqlik, zo'ravonlik, axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni eskilik sarqiti deb qarash, loqaydlik, mahalliychilik, irodasizlik kabi tushunchalar. Aslida globallashuv sharoitida buzg'unchilikka yo'naltirilmagan bo'lib ayrim kimsalarning g'arazli niyatları orqali bo'shliqlarga kirish bilan namoyon bo'lmoda.

Globallashuv yaratayotgan imkoniyatlardan hozirgi kunda ma'naviy bo'shliqni to'ldirishga harakat qilayotgan siyosiy va mafkuraviy markazlar foydalanmoqdalar. Mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini, yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi. Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg'ubor

yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilganligi ayniqsa xatarlidir. Yana bir turdag'i tahdidlar “ommaviy madaniyat” xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarni yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida tarixiy merosimizni asrab-avaylash, o‘rganish va ajdodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida jiddiy e’tiborda ekanligi kishining ko‘ngliga taskin beradi. Har bir narsaning yaxshi va yomon tomoni bo‘lgani kabi globallashuv jarayoni ham salbiy va ijobiy mohiyat kasb etaveradi.

Olimlarimiz globallashuvning ijobiy jihatlariga to‘xtalar ekan, ko‘pgina mamlakatlarga fan texnika, texnologiya yutuqlarining jadal kirib kelishi globallashuv tufayli, bu esa ularning iqtisodiy hayotiy rivojiga, xalqlarning turmush tarzini ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqa deb ta’kidlaydi. Globallashuv jarayonlarining milliy ma’naviyatga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri xususida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Transmilliy kompaniyalar mahsulotlari dunyo bo‘ylab tarqalishi ma’naviy ta’sirlar tashuvchisi sifatida, ayniqsa jamiyat kelajagi bo‘lgan yosh avlod dunyoqarashida shakllanishi o‘z milliy zaminlari hisobiga emas, balki unga zid bo‘lgan “ommaviy madaniyat” hisobiga rivojlanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida milliylikning barbod bo‘lish jarayonini tezlashtiradi; –siyosiy-mafkuraviy munosabatlardan keskinlashuvi, bu boradagi raqobat dunyo siyosiy manzarasida moddiy fan, texnik, texnologik imkoniyatlari yuksak taraqqiy qilgan mamlakatlarning ma’naviy ustuvorligini ta’minlashga, bu o‘z navbatida, milliy ma’naviyatning emrilishiga olib keladi.

Avvalambor mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy an'analar va ma’naviy qadriyatlarni, Vatanni sevish va ma’suliyatni his etish ruhida tarbiyalash, shu bilan birga andisha, g‘urur, or-nomus, ulug‘larga hurmat tushunchalarini yoshlar ongiga singdirish, ularni xalqimizning urf-odatlariga, ma’naviy merosini ulug‘lash, umuminsoniy tamoyillar va inson qadrini hurmat qilish kabi fazilatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish kerak. Murosachilik prinsipiga asoslangan “sharqona demokratiya” va milliy dunyoqarash tushunchasini farqlashga o‘rgatish. Bunda xamkorlik masalalarini yo‘lga qo‘yish orqali qisman echim topishga erishish mumkin. YA’ni ota-oanalar, ta’lim muassasalari, maxalla, ijtimoiy tarmoqlarga mas’ul tashkilotlar xamkorligini kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirish chora tadbirlarini yo‘lga qo‘yish talab qilinali.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar hayotiga ko‘rinmas, yashirin tarzda kirib kelayotgan global xurujlarga ongli ravshda munosabat bildirish, yoshlarga “ommaviy madaniyat” niqobidagi mafkura nima ekanligini tushuntirish va bu tahdidlarga qarshi kurasha oladigan barkamol insonlarni voyaga etkazish zarurdir. Xulosada, globallashuv sharoitida ma’naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi kurashda ta’lim-tarbiya muassasalari faoliyati tizimida harakatdagi shaxs, tarbiyachi - pedagog, o‘z shaxsiy qlbiliyati va mahoratini ishga solgan holda yoshlar bilan hamkorlikda ijodiy va hayotiy faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etsa, o‘rganuvchilar uning barcha shakl va ko‘rinishlarida real sub’ektga aylanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022-yildagi 289-sen qarori
2. A.O Proxorov, G.N. Gening. O’quv mashg’ulotlarida yosh o’quvchilarning aqliy holatlarining xususiyatlari /Psixologlar savollari/. –M.: 1998 y
3. Barnokhon R., Bakhtiyor P. The formation of creative thinking in teaching physics //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020.
4. Torrance E.R. Creativity and futurism in education: Retooling Education 1980. Vol 100 P